

INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNI IJTIMOYIY MOSLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2- bosqich talabasi

Jumayeva Munisa Asqarali qizi

***Annotasiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tizimining ijtimoiy va psixologik asoslari tahlil qilinadi. Unda inklyuziv ta'limning mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy adolat va bag'rikenglikni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarni psixologik jihatdan qo'llab quvvatlash, ijtimoiy moslashuvni ta'minlash va ijobiy o'quv muhitini yaratish masalalari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, psixologik asos, bag'rikenglik, motivatsiya, integratsiya, empatiya, ijtimoiy asos, pedagogik yondashuv.*

Har qanday davlat siyosatining insonparvar tamoyillarga asoslanishi, jamiyatda aholining nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga yaratilgan shart-sharoitlar, ulaming erkin, farovon yashashi uchun kerak bolgan barcha sohadagi qo'llab-quvvatlanishlari bilan belgilanadi. O'zbekiston taraqqiyotining besh tamoyilidan birining kuchli ijtimoiy siyosat sifatida belgilanishi, mamlakatimizda u yoki bu nogironlikka mansub, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga ehtiyojmand shaxslarga bo'lgan kengqamrovli, tegishli kompleks yondashuvlarning maqsadli amalga oshirilishi orqali ular hayotini farovonlashtirib borilishi maqsadi sari qadam tashlanayotganining yorqin dalilidir Ta'lim tizimini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi,

shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar ta'limning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi insonparvarlik, tenglik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Shularning eng muhim ifodasi sifatida inklyuziv ta'lim alohida e'tiborga loyiq. Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalarning, shu jumladan, jismoniy yoki aqliy cheklovlarga ega o'quvchilarning umumta'lim jarayoniga to'liq qo'shilishini ta'minlaydigan tizimdir. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonunlar bu borada muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'limiy, balki ijtimoiy va psixologik jarayon sifatida ham ahamiyatlidir. Chunki u insonni jamiyat hayotiga faol jalb etadi, ijtimoiy tenglik va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'limning siyosati turli xil extiyojli bolalami ta'lim olishini qo'llaydi, va yutuqga erishishiga yordam beradi hamda yaxshi xayot qurishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim - bu davlat siyosati bo'lib nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muxtoj, tarbiyasi og'ir, yetim bolalar, kasallangan bolalar va yoshlar uchun moslashuvidan va

individuallashtirilgan yordam tizimidir va barcha bolalarni teng ko'rishni ko'zda tutadigan ta'lim. Millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, manbai, moddiy va ma'naviy axvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko'zda tutadigan ta'limdir. Inklyuziv ta'limning ijtimoiy mohiyati — bu jamiyatning har bir a'zosi teng huquqli ekanligini e'tirof etish, farqlilikni ijobiy qadriyat sifatida qabul qilishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularni hech kimdan kam emasligini ularga singdirish uchun: Har bir bola ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy yoki psixologik holatidan qat'iy nazar, ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi kerak - har bir bola ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy yoki psixologik holatidan qat'iy nazar, bir xil ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi kerak; inklyuziv ta'limda maktab, oila, jamiyat va davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlik muhim o'rin tutadi; turli ehtiyojli bolalar o'rtasida o'zaro hurmat, sabr-toqat va ijobiy muloqotni shakllantirish orqali jamiyatda tolerantlikni rivojlantirish; inklyuziv ta'lim orqali o'quvchilar jamiyat hayotiga faol qo'shiladi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqaradi. Psixologik jihatdan inklyuziv ta'lim shaxsning ruhiy, emotsional va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Har bir o'quvchi o'zini maktab jamoasining teng a'zosi sifatida his qilganda, unda o'ziga ishonch, o'qishga bo'lgan motivatsiya va ijobiy “men” obrazi shakllanadi. Psixologik jihatdan barqaror o'quvchi nafaqat o'qishda, balki ijtimoiy hayotda ham faol, ijobiy fikrlaydigan shaxsga aylanadi. Shu sababli o'qituvchi va psixologlarning hamkorligi inklyuziv muhitda muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati, avvalo, o'qituvchining ijtimoiy va psixologik tayyorgarligiga bog'liq. U nafaqat bilim beruvchi, balki: motivator, psixologik yordamchi, ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

O'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni moslashtiradi, turli pedagogik strategiyalarni qo'llaydi, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratadi. Shuningdek, empatiya, sabr-toqat va ijtimoiy faollik o'qituvchi shaxsida ustuvor fazilatlar bo'lishi zarur.

2015 yilning 21 may kuni Koreyaning Inchxon shahrida Butunjahon ta'lim forumi o'tkazilib, unda sayyoramizdagi barcha shaxslarning ta'limi hamda zaruriy bilim va malakalarni egallashlarini ta'minlashga qaratilgan 2030 yilga qadar Rivojlanish Deklaratsiyasi hamda Global rejasi qabul qilinib, ularda ta'lim shaxsning rivojlanishi, o'z-o'zini namoyon etishi, jamiyat hayotiga uyg'unlashuvi, ijtimoiylashuvi hamda shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishishining zaruriy sharti ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi. Xuddi shu yilning 29 oktyabrda Fransiyada bo'lib o'tgan BMT Sammitida ishtirokchi davlatlar kun tartibining muhim masalasi sifatida "barcha shaxslarga maktabgacha, boshlang'ich, o'rta, yuqori va kasbiy-texnik tayyorgarlik pohnalarida sifatli ta'lim olishlari uchun inklyuziv va teng ravishdagi sharoitlarni yaratish"ni rasman qabul qildilar.

Turli jabhalarida ijobiy o'zgarishlari bilan dunyo hamjamiyati tomonidan tobora keng e'tirof etilayotgan mamlakatimizda nogironligi bo'lgan bolalar ta'limiga muhim omil sifatida qaralayotganini kuzatishimiz mumkin. Kuni kecha imzolangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida ham mamlakatimizda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida inklyuziv ta'limni rivojlantirish belgilangani fikrimizning yorqin dalilidir.

Respublikamizda 1996 yildan boshlab maxsus ta'limga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish maktablari - inklyuziv maktablari shakllana boshladi. Amalga oshirilgan loyihalarda turli soha vakillari, hamjamiyat ishtirokchilarining yakdil sa'yi-harakatlari natijasida erishilgan yutuqlar

alohida e'tiborga muhtoj bolalar abilitatsiyasi va rehabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, ulardagi mavjud muammoning erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuvlariga samarali ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Bundan ko'rinib turibdiki Inklyuziv ta'lim hozirgi davrimizda juda dolzarb masalaga aylanib kelmoqda. Farzandlarimizning ma'naviy hamda jismoniy sog'lom, kelajagi buyuk O'zbekistonning ilg'or fuqarosi bo'lib yetishishlari uchun barcha - jamiyatimiz har bir a'zosi hamjihat bo'lib harakat qilishi lozim. Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli ta'limqatnashchilarining hamkorligini amalga oshirishda maxsus maktab o'qituvchi va tarbiyachilaridan kasbiy savodxonlik, delikatlik, hamdardlik, izchillik va qat'iyat namoyon qilish talab etiladi. Ota - onalarning farzand tarbiyasi bilan sistemali shug'ullanish, uning ta'limida qatnash istagi ko'p jihatdan maxsus maktab pedagoglarining ota - onalar bilan shaxsiy va ish tartibida aloqalarini yo'lga qo'ya olishi, o'zining bolalar bilan ishlashi namunasi bilan qiziqтира olishi, turli yo'nalishlardagi ish metod va usullarini qulay shaklda tushuntirishi va namoyish etib berishi bilan bog'liq.

Xulosa: Inklyuziv ta'limning mohiyati inson qadr-qimmatini tan olish, farqlilikni boylik sifatida qabul qilish va har bir bola uchun ta'limning ochiqligini ta'minlashdan iborat. Uning dolzarbligi shundaki, bu tizim orqali jamiyatda ijtimoiy adolat, bag'rikenglik va insonparvarlik qadriyatlari mustahkamlanadi. Inklyuziv ta'lim nafaqat maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun, balki barcha bolalar uchun foydalidir — ularning shaxs sifatida kamol topishiga, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishiga yordam beradi. Shunday ekan, inklyuziv ta'limni rivojlantirish har bir davlatning ijtimoiy siyosati va ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori. – Toshkent, 2020.
3. Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tiziminitubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006 son farmoyishi
4. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Inklyuziv ta'limni joriy etish konsepsiyasi" to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2021
6. "Inklyuziv ta'lim" o'quv qo'llanma. Z.N. Marjabova, B.Q. Subanova - Toshkent 2022.
7. Devedu.uz. Inklyuziv ta'lim nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2024.